SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li - Guliston davlat universiteti
v.b.dotsenti, p.f.f.d (PhD)
e-mail: hudojberdievgijosiddin@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qitish prinsiplari haqida batafsil so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: valeologiya, kompetentlik, valeologik kompetensiya, sog‘lom turmush tarzi, gigiyenik tarbiya, sog‘liqni saqlash.

Развитие валеологических компетенций у будущих учителей на основе философских взглядов восточных мыслителей

Аннотация: В статье подробно рассматриваются педагогические условия формирования валеологических компетенций у будущих учителей и принципы преподавания в образовательном процессе, направленные на формирование валеологических компетенций.

Ключевые слова: валеология, компетентность, валеологическая компетентность, здоровый образ жизни, гигиеническое воспитание, сохранение здоровья.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini yaratish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ta’limning ustuvor vazifalari esa yangi avlod kadrlarini o‘z sohasining mutaxassisi qilib yetishtirish va jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini faol tatbiq etish jarayonida shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Shunga ko‘ra, “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarorida aynan mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasiga urg‘u berilgan (VMQ, 2021). Ushbu qonunda davlatimizda kasbiy kompetensiyalarini baholashni talabgorlar va ish beruvchilar o‘rtasida ommalashtirish, kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimining rivojlantirilishida hamda kasbiy standartlarning ishlab chiqilishida eng ilg‘or xorijiy tajriba va ilmiy hamjamiyat takliflari qo‘llanilishining ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

Zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar munosabati bilan “kompetensiya” va “kompetentlik” so‘zlari yangi tusga kirdi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq ifodalashda N.A.Muslimov, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya,John Raven, Robert White, Richard Boyatzis, Lothar Reetz va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.Turli xil izohli lug‘at va ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari turlicha izohlanadi. Ularning ma’nosini to‘g‘ri anglash va tushunish maqsadida quyidagi lug‘atlarga e’tiborimizni qaratdik:

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da keltirilishicha: “kompetensiya” (lot. Competo–erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir [2; 226-b].

Rus tili lug‘atida “kompetensiya”ga shunday izoh berilgan, [lot. competo – erishyapman; munosibman, loyiqman], 1. qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan muayyan organ yoki mansabdor shaxsga berilgan topshiriq; 2. muayyan sohadagi bilim, tajriba bilimli, qobiliyatli, malakali bo‘lish negizidagi “kompetensiya” so‘zining kelib chiqishi chuqur o‘tmishimiz tarixiga borib taqaladi [3: 512-b].

O‘zbek xalqining asriy an’analari, jumladan, ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuqlari ajdodlarimizning tabarruk o‘gitlari bilan bog‘liq. Temuriylar renessansi davrlarida jahon sivilizatsiyasiga bebaho ilmiy-madaniy va ma’rifiy hissa qo‘shgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Termiziy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlariga ega o‘zbek xalqining kundalik turmush jarayonlari, jumladan,ta’lim masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ijod, ilm-fan, insoniylik, halol mehnat, oliyjanoblik va bag‘rikenglikka undovchi ulamolar hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyoda ta’lim-tarbiya va taraqqiyotning ma’naviy asosi bo‘lib kelgan.

“Kompetensiya –bu ta’lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko‘nikmaga tushmaydi; kompetentlik –bu olim yoki o‘qimishli odam bo‘lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko‘nikma o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko‘nikma –bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya –xatti-harakatlar, ko‘nikmalarning kuzatuvlaridan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko‘nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi. Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar belgilab qo‘yilgan. Ularga asosiy kasbiy ta‟lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Dasturning variativ qismi ta’lim muassasasining, mintaqaning o‘ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi [4: 120-b].

Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, Sharq mutafakkirlarining valeologik kompetentlikni shakllantirishning mavjud holati yoritilgan.

Jamiyatning ijtimoiylashuv jarayonlarida yosh avlod ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Jamiyatning sog‘lomligi esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuqori darajada sog‘lom turmush madaniyatiga ega bo‘lishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, agar jamiyatda mavjud barcha institutlar tomonidan bolalar ma’naviy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan shart-sharoit yaratilsa, o‘sha jamiyatda yashab, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yuqori darajaga ko‘tariladi.

Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Sharq allomalari, olimu mutafakkirlar qadimdan adab ilmini chuqur o‘rganib, rivojlantirib kelishgan. Ayniqsa, har taraflama go‘zal odobli, yaxshi xulqli va hayoli bo‘lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada ulkan o‘zgarishlar sababchisidir. Hadislarda, allomalarning o‘gitlarida inson ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Har bir insonning o‘zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e’tibor berish zarurligi haqida buyuk sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulubek, Yusuf Xos Hojib ham o‘z zamonlarida qimmatli fikrlarini alohida qayd etib o‘tganlar.

Har bir yosh uchun jismoniy koʻrsatkichlar mutlaq emas, ular nisbiy xarakterda boʻlib, ijobiy rivojlanish tendentsiyasini saqlab, turli xil tarixiy rivojlanish davrlarida oʻzgarib turadi. Ushbu koʻrsatkichlarga quyidagilar kiradi: bolaning oʻsishi, vazni, koʻkrak hajmi, mushaklarning kuchi, qobiliyatlari va boshqalarni aytish mumkin. Oʻsmir yoshni rivojlantirishning pedagogik mezonlari tarbiya, ta'lim va tarbiya imkoniyatlarini tavsiflaydi, inson hayotining turli davrlarida aqliy, mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya imkoniyatlarini belgilaydi. Inson rivojlanishining yosh davrlarini ajratish uchun anatomik, fiziologik, jismoniy, psixologik va pedagogik koʻrsatkichlar majmui qoʻllaniladi. Ba'zi koʻrsatkichlar ushbu yosh davrida yetakchi hisoblanadi, boshqalari esa zanjir singari bogʻliq boʻlib turadi. Oʻquv faoliyati insonning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy fazilatlarini shakllantirish mazmuni hamda xususiyatlarini belgilaydi. Sharq mutafakkirlari asarlari va tarixiy-ilmiy manbalarda olgʻa surilgan yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlarni quyidagicha izohlash mumkin: ota-onalarga sogʻlom fapzand dunyoga keltirish boʻyicha maslahatlar; komil inson tarbiyasida yosh xususiyatlarini hisobga olish; diniy va dunyoviy bilimlarni egallash; oliyjanob boʻlish, pokiza yurish, oila va vatan oldidagi burch va vazifalarning ustunligiga erishish, ezgulikka xizmat qilish.

Ar-Roziy odamlami falsafiy turmush tarzi talablarida yashashga undaydi, ayrim kishilarga xos salbiy axloqiy sifatlar: ortiqcha ehtiros, injiqlik, jahldorlik, yolgʻon soʻzlash, hasad, ochkoʻzlik, qaygʻu, mechkaylik, ichuvchanlik kabilarni qattiq qoralaydi. Falsafiy yashash tarzi tushunchasini ilmiy asoslab beradi.

Ar-Roziy fikricha, faylasuf olim hayotda adolatparvar, insonparvar, ishi bilan soʻzi bir kishilar boʻlishlari lozim. Ular odamlarga muomala madaniyatini oʻrgatishda oliyjanoblikning ustunligini, badxulqlikning boshga lalokat keltirishini lushuntirishlari, yaxshilikka undash, halol mehnat qilish farovon va sogʻlom turmush kechirishning asosi ekanligini anglatishlari lozim deb ta'lim berdi.

Ahmad Yassaviy fikricha, oʻz nafsining boshini yanchgan kishining gʻururi va qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi. Shu bois, "Hikmatlar' bizga yashash tarzimizni adashmasdan toʻgʻri belgilab olishimizda, koʻproq ezgu savob ishlar qilishimizda, oʻz mohiyatimizni anglab yetishimizda koʻmak beradi. Nafsni jilovlay bilish inson qalbini tozalaydi va tiniqlashtiradi, odamlami toʻgʻri yoʻlga boshlaydi. Sogʻlom nafs insonni hayvoniy ehtiroslarga berilib ketishdan saqlaydi, jismonan mustahkamlaydi, uning quvvatini oshiradi, ogʻir kasalliklardan asrab, insonning ma'naviy yuksalishiga olib keladi. Sogʻlom nafs - sogʻlom turmush tarzining muhim belgisidir. Nafsni tiya bilmaslik inson qalbini xiralashtiradi, toʻgʻri yoʻldan ozdiradi. Nafsga berilish insonni tubanlashtiradi, oqibatda uni halok etadi.

Abu Ali ibn Sinoning inson salomatligiga qo‘ygan gigiyenik talablari “Sog‘liqni saqlashga doir risola” deb nomlangan asarida bayon qilingan. Kitobning maqsadi inson tanasiga zararli ta’sir etuvchi holatlarni, uning turmush tarzidagi xatolarni to‘g‘rilash orqali bartaraf etilish usullarini bayon qilishdir, deb yozadi muallif. Kitobning birinchi maqolasida ushbu xatolar va ularni muvozanatlashtirish choralari haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Kitobning alohida maqolalarida havo, uning turli holatlari-musaffoligi, namligi, quruqligining inson organizmiga ta'sirini bayon qilib, ulardan himoyalanish usullarini ko‘rsatadi. U uzoq turib qolgan havo ham, harakatdagi havo ham organizm uchun zararlidir, deb ko‘rsatadi. Hammomlar to‘g‘risidagi maqolasida hammomga qo‘yiladigan gigiyenik talablarga to‘xtaladi. Hammomga to‘yib ovqatlangan holda kirish organizmga katta xavf tug‘dirishi, shuningdek, uzoq muddat davomida cho‘milish, ortiqcha va kuchli uqalashning zarari. ayni paytda hammomdan so‘ng biroz vaqt sot' havoda sayr etishning foydali ekanligini bayon qilgan. [5:16-20-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi kunda yurtimizda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda, kasbiy kompetensiya masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning “kasbiy kompetensiya”si deganda, o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini tinmay boyitib borishi va yangi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yishi, ya’ni davr talablarini his etishi hamda o‘z amaliy faoliyatida to‘g‘ri qo‘llay olishi tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentyabrdagi VMQ-616-son “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Elektron resurs: https://lex.uz/docs/5664463.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, –T.: 2008. 8 tom. B-26.
3. Новая иллюстрированная энциклопедия. Кн. 5. Кл –Ма. –М.: Большая Российская энциклопедия, ООО “ТД Издательство Мир книги”, 2007. –512 с.